

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DISGRAFIYA MUAMMOSI

Utebergenova Nursulu Rambergen qizi,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Logopediya yo'nalishi magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18798818>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan disgrafik buzilishlarning nazariy asoslari, kelib chiqish mexanizmlari va ularni korreksiya qilish masalalari yoritilgan. Yozma nutqning psixofiziologik tuzilishi, uning ko'p bosqichli jarayon ekanligi hamda yozuvni shakllantirishda ishtirok etuvchi analizatorlar faoliyati tahlil qilingan. Disgrafiyaning mohiyati, asosiy belgilari va boshqa yozuv xatolaridan farqli jihatlari ochib berilgan. Turli olimlarning ilmiy qarashlari asosida disgrafiyaning tasnifi, simptomatikasi hamda patogenezi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafiyaning erta aniqlash, profilaktika va korreksion ishlarni tashkil etishning ahamiyati asoslab berilgan. Logoped va sinf o'qituvchisining hamkorligi, shuningdek, tizimli pedagogik yondashuv yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishda muhim omil ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** disgrafiya, yozma nutq, boshlang'ich sinf o'quvchilari, fonematik tahlil, optik buzilishlar, akustik buzilishlar, agrammatik disgrafiya, logopedik korreksiya, profilaktika.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы, механизмы возникновения и пути коррекции дисграфии у учащихся начальных классов. Проанализирована психофизиологическая структура письменной речи как многоэтапного процесса, а также роль различных анализаторов в формировании навыков письма. Раскрыта сущность дисграфии, её основные признаки и отличия от обычных орфографических ошибок. На основе научных исследований представлены классификации, симптоматика и патогенез дисграфии. Обоснована необходимость ранней диагностики, профилактики и организации коррекционной работы в условиях общеобразовательной школы. Подчеркивается значимость сотрудничества логопеда и учителя начальных классов в преодолении нарушений письменной речи.

**Ключевые слова:** дисграфия, письменная речь, младшие школьники, фонематический анализ, оптические нарушения, акустические нарушения, аграмматическая дисграфия, логопедическая коррекция, профилактика.

**Abstract.** This article examines the theoretical foundations, mechanisms, and correction methods of dysgraphia in primary school students. The psychophysiological structure of written speech as a multi-stage process is analyzed, including the role of various analyzers involved in the development of writing skills. The essence of dysgraphia, its main characteristics, and its differences from common spelling errors are described. Based on scientific research, the classification, symptomatology, and pathogenesis of dysgraphia are presented. The importance of early diagnosis, prevention, and systematic corrective work in general education schools is substantiated. The study emphasizes the significance of cooperation between speech therapists and primary school teachers in overcoming writing disorders.

**Keywords:** dysgraphia, written speech, primary school students, phonemic analysis, optical disorders, acoustic disorders, agrammatic dysgraphia, speech therapy correction, prevention.

**Kirish.** Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafik buzilishlarni aniqlash va tuzatish masalalari juda dolzarb hisoblanadi. Chunki maktabda o'qish boshlangach, ayrim bolalarda o'qish va yozishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ular ona tilini o'rganishda qiynaladilar, biroq matematika va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari mumkin. Bunday qiyinchiliklar ko'pincha disgrafiyaning qisman o'ziga xos buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida yozma nutqni egallash o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishning eng mas'uliyatli davri hisoblanadi. Mazkur bosqichda yuzaga kelgan yozma nutqdagi kamchiliklar keyingi sinflarda murakkablashib, o'quv faoliyatining barcha yo'nalishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan disgrafiya nafaqat logopedik, balki pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda yozma nutq buzilishlari, xususan disgrafiya bilan bog'liq murojaatlarning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat bolalarning nutqiy rivojlanishidagi individual xususiyatlar, maktabga tayyorgarlik darajasi, oilaviy nutq muhiti, raqamli texnologiyalarning erta qo'llanilishi hamda noqulay psixologik omillar bilan izohlanadi. Ayrim hollarda bola og'zaki nutqda sezilarli nuqsonlarga ega bo'lmasada, yozma nutqni o'zlashtirish jarayonida barqaror va takrorlanuvchi xatolarga yo'l qo'yadi. Bu esa disgrafiyaning oddiy savodsizlik yoki e'tiborsizlik bilan adashtirmaslik zarurligini ko'rsatadi.

Yozma nutqni shakllantirish jarayoni psixologik nuqtai nazardan murakkab integrativ faoliyat bo'lib, unda tafakkur, xotira, diqqat, idrok, analiz va sintez jarayonlari birgalikda ishtirok etadi. Neyropsixologik tadqiqotlarda, xususan Alexander Luriya ishlarida yozuv bosh miya po'stlog'ining turli zonalarida o'zaro hamkorligiga asoslangan funksional tizim ekanligi ta'kidlanadi. Demak, ushbu tizimning biror bo'g'inidagi yetishmovchilik yozma nutqning to'liq shakllanmasligiga olib kelishi mumkin.

Disgrafiya muammosining dolzarbligi shundaki, u o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, dars jarayonida ruhiy zo'riqish keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi. Yozma topshiriqlarda doimiy muvaffaqiyatsizlikka uchragan bola o'z imkoniyatlarini past baholay boshlaydi, bu esa ikkilamchi psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli disgrafiyaning erta bosqichda aniqlash va tizimli korreksion ishlarni tashkil etish nafaqat o'quv natijalarini yaxshilaydi, balki bolaning shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Boshlang'ich ta'lim sharoitida disgrafiyaning oldini olish maktabgacha davrdanoq fonematik idrok, mayda motorika, fazoviy tasavvurlar va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ishlarni talab etadi. Shu bois mazkur muammo kompleks yondashuvni — logoped, sinf o'qituvchisi, psixolog va ota-onalarning hamkorligini taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq buzilishlari, xususan disgrafiya muammosi logopediya fanida keng o'rganilgan. Disgrafiyaning nazariy asoslari, tasnifi va korreksiya yo'llari ko'plab ilmiy manbalarda yoritilgan bo'lib, ular mazkur tadqiqot uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Logopediya nazariyasining umumiy masalalari va nutq buzilishlarining tizimli tavsifi **L.S. Volkova** tahriri ostidagi darslikda keng bayon etilgan bo'lib, unda yozma nutq buzilishlarining kelib chiqish mexanizmlari hamda ularni bartaraf etishning umumiy

prinsiplari ko'rsatib o'tilgan [1, 412–430-b.]. Shuningdek, mazkur nashrda disgrafiya va disleksiya muammolari kompleks yondashuv asosida izohlanadi [8, 458–472-b.].

Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq buzilishlarini maxsus o'rganish R.I. Lalaeva tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Muallif disgrafiyani yozish jarayonining qisman buzilishi sifatida ta'riflab, uning simptomatikasi va tasnifini ishlab chiqqan [7, 23–41-b.]. Lalaeva disgrafik xatolarning doimiyligi va o'ziga xosligini asoslab, ularni oddiy orfografik xatolardan farqlash mezonlarini ko'rsatadi [7, 52–60-b.].

I.N. Sadovnikova boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq buzilishlarini tahlil qilib, disgrafiyani barqaror va takrorlanuvchi xatolar tizimi sifatida tavsiflaydi hamda diagnostika va korreksiya metodikasini ishlab chiqadi [9, 15–28-b.]. Muallif fonematik idrok, til tahlili va sintez jarayonlarining yetarli shakllanmaganligi disgrafiyaning asosiy sababi ekanligini ta'kidlaydi [9, 63–74-b.].

A.N. Kornev yozma nutq buzilishlarini neyropsixologik nuqtai nazardan o'rganib, o'qish va yozish jarayonidagi kamchiliklarni bosh miya funksional tizimlarining yetarli rivojlanmaganligi bilan izohlaydi [10, 112–130-b.]. U disgrafiya va disleksiya mexanizmlarini tahlil qilib, ularning differensial diagnostikasiga alohida e'tibor qaratadi [10, 187–205-b.].

L.V. Lopatina va N.V. Serebryakova tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish masalalari ko'rib chiqilib, yozma nutq buzilishlarining oldini olishda erta korreksion ishlarning ahamiyati asoslab berilgan [2, 98–110-b.; 6, 45–53-b.].

Shuningdek, R.I. Martynova va E.F. Arxipova ishlarida dizartriya va artikulyatsion buzilishlarning yozma nutq shakllanishiga ta'siri yoritilgan bo'lib, bu omillar artikulyator-akustik disgrafiya rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatiladi [3, 64–72-b.; 4, 37–49-b.].

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Yozuv — nutq faoliyatining murakkab shakli bo'lib, u ko'p bosqichli jarayondir. Unda turli analizatorlar ishtirok etadi: nutq, ko'rish, umumiy motorika. Yozish jarayonida ular o'zaro bog'lanadi. Jarayonning tuzilishi yozuv ko'nikmalarini egallash davri, vazifasi va yozuv xarakteriga bog'liq. Yozuv og'zaki nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, faqat uning yuqori darajada rivojlanganligi asosida amalga oshadi. Yozish jarayonidagi murakkab operatsiyalardan biri — so'zning tovush tuzilishini tahlil qilishdir. So'zni to'g'ri yozish uchun uning tovush tarkibini, har bir tovushning ketma-ketligi va o'rnini aniqlash zarur. Nutqning tovush tahlili nutq va eshituv analizatorlarining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida yozma nutq buzilishlari boshqa nutq buzilishlariga nisbatan ancha katta foizni tashkil etadi. Disgrafiya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv dasturini o'zlashtirishda jiddiy to'siq bo'lib, yozma nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish muammosi korreksion

pedagogikaning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir, chunki disgrafiya boshlang'ich sinf bolalarida nutq kamchiligi sifatida namoyon bo'ladi.

Disgrafiya — yozish jarayonining qisman buzilishidir. U yozuvni amalga oshiruvchi oliy psixik jarayonlarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq. Yozish jarayoni ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lib, ko'plab operatsiyalardan iborat. K. K. Omirbekovanning "Yozma nutq buzilishlari va ularni korreksiya qilish yo'llari" asarida hamda Alexander Luriyaning "Yozuv psixofiziologiyasi ocherklari" kitobida yozuv jarayoni tahlil qilingan. Inson yozma nutqni rejalashtiradi: fikrni shakllantiradi, yo'naltiradi, umumiy ketma-ketlikni o'ylab chiqadi. Dastlabki fikr gap tuzilmasi bilan ifodalanadi. Har bir yoziladigan gap uni tashkil etuvchi so'zlarga bo'linadi, chunki yozuvda har bir so'z chegarasi belgilanadi. Yozuv ko'nikmasini egallashning dastlabki bosqichlarida tovushni to'g'ri talaffuz qilish katta ahamiyatga ega. Bu tovushning xususiyatini aniqlashga, o'xshash tovushlardan farqlashga va so'zdagi tovushlar ketma-ketligini belgilashga yordam beradi. Keyingi bosqichda so'zdan ajratilgan fonema harfning mos grafik tasviri bilan bog'lanadi va boshqa, ayniqsa grafik jihatdan o'xshash harflardan farqlanadi. Grafik jihatdan o'xshash harflarni ajratish uchun tahlil va umumlashtirish, fazoviy tasavvurlar yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur. Harflarni tahlil qilish va taqqoslash birinchi sinf o'quvchisi uchun oson jarayon emas. Shundan so'ng yozuv jarayonining motor operatsiyasi amalga oshadi — ya'ni qo'l harakati yordamida harfning ko'rishdagi tasviri hosil qilinadi. Qo'l harakati bilan bir vaqtda kinestetik nazorat ham amalga oshiriladi. Yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarning birortasining noto'g'ri shakllanishi yozuvni o'zlashtirish jarayonining buzilishiga, ya'ni disgrafiyaga olib keladi. O'qish va yozishdagi buzilishlar ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bolalarning maktabga moslashuvini qiyinlashtiradi, shaxs shakllanishiga hamda umumiy psixik rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda yozma nutqni o'zlashtirish jarayonidagi buzilishlar turli yo'nalishlarda o'rganilmoqda: klinik, psixologik, neyropsixologik, psixolingvistik va pedagogik jihatdan (T.V. Axutina, A.N. Kornev, R.I. Lalaeva, R.E. Levina, N.A. Nikashina, I.N. Sadovnikova, O.A. Tokareva, M.E. Xvatsev va boshqalar). Shunga qaramay, yozuv buzilishlarini korreksiya qilish muammosi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu bir tomondan bunday buzilishlarga ega o'quvchilar sonining ortib borayotgani, ikkinchi tomondan esa buzilishning simptomatikasi va mexanizmlarining murakkablashuvi bilan bog'liq.

Maxsus yozuv buzilishi — disgrafiya — imlo qoidalarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi (O.I. Azova, R.I. Lalaeva, L.G. Paramonova, I.V. Prishchepova). U bolaning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va dars jarayonida ortda qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois logopediyaning dolzarb vazifalaridan biri disgrafiyani korreksiya qilishning samarali yo'llarini izlashdir.

“Disgrafiya” atamasining mazmuni zamonaviy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan ta‘riflardan ba‘zilari quyidagilar:

R. I. Lalayeva disgrafiyaning yozish jarayonining qisman buzilishi deb ta‘riflaydi. Unga ko‘ra, bu yozish jarayonida ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi sababli yuzaga keladigan doimiy va takrorlanuvchi xatolar bilan namoyon bo‘ladi.

M. E. Khvatsev disgrafiyaning keng o‘rgangan. Dastlab u disgrafiyaning tovush talaffuzi kamchiliklarining namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rib chiqqan. Ayrim hollarda talaffuzdagi nuqsonlar ko‘rish stereotipining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu harf shaklini noto‘g‘ri o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi.

R. E. Levinaning dastlabki ishlarida yozuv buzilishlari fonematik rivojlanishning yetarli emasligi bilan izohlangan. N.A. Nikashina va L.F. Spirova esa yozuvdagi buzilishlarni til rivojlanishining dastlabki bosqichlaridagi noto‘g‘ri shakllanish bilan bog‘laydilar.

So‘nggi yillarda disgrafiya muammosi K. K. Omirbekova, M.M. Rahimova, J. Nurseitova tomonidan ham tadqiq qilingan.

I. N. Sadovnikova disgrafiyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni o‘zlashtirishdagi qiyinchilik sifatida ta‘riflaydi. Uning asosiy belgisi — barqaror va o‘ziga xos xatolarning mavjudligidir. Bu xatolar umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida aqliy rivojlanishning pasayishi, eshitish yoki ko‘rish nuqsonlari, yoxud pedagogik qarovsiz qolish bilan bog‘liq emas.

A. N. Kornev ta‘kidlashicha, disgrafiya — bu yetarli intellektual va nutqiy rivojlanishga hamda eshitish va ko‘rishda qo‘pol buzilishlar yo‘qligiga qaramay, grafik qoidalar asosida yozish ko‘nikmasini egallay olmaslikdir.

A. L. Sirotyuk disgrafiyaning bosh miya po‘stlog‘ining shikastlanishi, yetarli rivojlanmaganligi yoki disfunktsiyasi natijasida yuzaga keladigan yozuv ko‘nikmalarining qisman buzilishi sifatida ta‘riflaydi.

Nevropatolog N. K. Monakov yozma nutqni o‘rganishda katta ahamiyatga ega tadqiqotlar olib borgan. U disgrafiyaning og‘zaki nutqning umumiy xususiyatlari, nutq buzilishlari yoki afaziya bilan bog‘lagan ilk olimlardan biri bo‘lgan.

E. Illing yozuv buzilishida izdan chiqadigan quyidagi jarayonlarni ajratib ko‘rsatgan:

1. Harfning optik birligi va tovushning akustik birligini o‘zlashtirish;
2. Tovushni harf bilan bog‘lash;
3. Harflarni so‘zga sintez qilish;
4. So‘zlarni optik va akustik elementlarga ajrata olish;
5. So‘z urg‘usi, ohangi va unli tovushlarni aniqlash;
6. O‘qilgan matnni tushunish.

Shunday qilib, disgrafiya murakkab va ko‘p omilli buzilish bo‘lib, uni o‘rganish hamda korreksiya qilish kompleks yondashuvni talab etadi.

Rossiyalik nevropatologlar orasida disgrafiyani R. A. Tkachev va S. S. Mnukhin tadqiq qilganlar.

R.A. Tkachev tug‘ma anomaliyalarni aniqlagan. Uning fikricha, to‘g‘ri o‘qitish jarayonida bola harflar va tovushlarni to‘g‘ri nomlashi hamda ularni xotirada saqlashi mumkin. Biroq ko‘pincha butun zanjir emas, balki faqat oxirgi bo‘g‘in yoki element esda qoladi. Tkachevning ta’kidlashicha, normal ko‘rish va eshitish sharoitida ham intellekt bilan harf tasvirlari o‘rtasidagi bog‘lanish sust bo‘lishi mumkin. Bu buzilish irsiy omil bilan ham xarakterlanadi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab yozuv buzilishlari psixologlar, pedagoglar va defektologlar tomonidan o‘rganila boshlandi. Birinchi bo‘lib F.A. Rau yozuv buzilishi bilan tovush talaffuzi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan, keyinchalik M. E. Khvatsev bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borgan. R.M. Boskis va R.E. Levina tadqiqotlari yozuvdagi kamchiliklar ko‘p jihatdan fonematik idrokning buzilishi bilan bog‘liqligini isbotlagan.

Hozirgi kunga qadar disgrafiyani qaysi yoshda yoki maktab ta’limining qaysi bosqichida aniq tashxislash mumkinligi borasida yagona fikr mavjud emas. Shuning uchun “yozishni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar” va “disgrafiya” tushunchalarini farqlash muhimdir. Disgrafiya — bu maktab ta’limi jarayonida yozuv texnikasi o‘zlashtirilgan deb hisoblangan davrda ham saqlanib qoladigan barqaror yozuv buzilishidir. Bu yondashuv disgrafiyaning mohiyatini tushunish hamda uni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha pedagogik choralarni tashkil etishda maqsadga muvofiqdir.

R. I. Lalaeva zamonaviy logopediya nazariyasiga asoslanib, disgrafiyada uchraydigan xatolarning xususiyatlarini tavsiflagan. Unga ko‘ra, disgrafik xatolar:

doimiy va o‘ziga xos bo‘ladi;

ko‘p marta takrorlanadi;

uzoq vaqt saqlanib qoladi;

kichik yoshdagi o‘quvchilarga xos oddiy xatolardan farq qiladi.

Bu xatolar nutqning leksik-grammatik tuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, optik-fazoviy funksiyalarning sustligi, fonemalarni eshitish va talaffuz orqali farqlash qobiliyatining yetarli emasligi, gapni tahlil qilish, bo‘g‘in va fonematik tahlil-sintez jarayonlarining buzilishi bilan bog‘liq.

Disgrafiya turli mezonlarga ko‘ra tasniflanadi: buzilgan analizatorlar, psixik funksiyalar yoki yozuv operatsiyalarining shakllanmaganligi hisobga olinadi.

A. A. Tokareva disgrafiyaning uch turini ajratadi: akustik, optik va motor.

1. **Akustik disgrafiya** — eshitish idrokining yetarli rivojlanmaganligi, tovush tahlili va eslab qolishdagi kamchiliklar bilan bog‘liq.

2. **Optik disgrafiya** — og‘ir shakllarida bola so‘zni yozolmaydi, faqat alohida harflarni yozadi. Ayrim hollarda “oyna yozuvi” (harflarni teskari yozish) kuzatiladi.

3. **Motor disgrafiya** — qo‘l harakatlarining murakkabligi, tovush va ko‘rish tasviri bilan motor tasvir o‘rtasidagi bog‘lanishning buzilishi bilan xarakterlanadi.

Nisbatan asosli tasnif Herzen State Pedagogical University of Russia (A.I. Gertsen nomidagi LGPI) logopediya kafedrasida tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra disgrafiyaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. **Artikulyator-akustik disgrafiya** — harflarni almashtirish yoki tushirib qoldirish bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha dizartriya, rinolaliya, polimorf displaliya bilan bog‘liq. Og‘zaki nutqda tuzatilgan xatolar yozma nutqda saqlanib qolishi mumkin.

2. **Fonemani farqlash buzilishiga asoslangan disgrafiya** (akustik disgrafiya) — fonetik jihatdan yaqin tovushlarga mos harflarni almashtirish kuzatiladi.

3. **Til tahlili va sintezi buzilishi asosidagi disgrafiya** — gapni so‘zlarga ajratish, bo‘g‘in va fonematik tahlil hamda sintez jarayonlarining buzilishi bilan bog‘liq.

4. **Agrammatik disgrafiya** (R.Sh. Levina, I.K. Kolkpakovskaya, R.I. Lalaeva, V.D. Yakovleva asarlarida tasvirlangan) — nutqning grammatik tomoni (morfologik va sintaktik umumlashtirishlar) yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

5. **Optik disgrafiya** — ko‘rish gnozisi, tahlil va umumlashtirishning buzilishi, fazoviy orientatsiyaning sustligi sababli harflarni almashtirish va chalkashtirish bilan namoyon bo‘ladi.

So‘zni yozish uni o‘qishdan ancha murakkab jarayondir. Yozishni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar so‘zni yozish uchun zarur bo‘lgan barcha yoki ayrim jarayonlarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Fonematik tahlilning yetishmasligi so‘zni tarkibiy qismlarga ajratishni qiyinlashtiradi va ajratilgan tovushlarni aniq farqlashga to‘sqinlik qiladi. Talaffuzdagi nuqsonlar esa so‘zni tahlil va sintez qilishni murakkablashtiradi. Motor sohadagi buzilishlar (barmoqlar va qo‘l mushaklari harakatlarining yetarli muvofiqlashmaganligi), harakatlarning beqarorligi hamda qog‘oz varag‘ida va satrda fazoviy orientatsiyaning buzilishi yozuvdagi xatolarga olib keladi. Bolalarda yozuv buzilishi (disgrafiya) uzoq yillardan beri o‘rganib kelinmoqda. Shunga qaramay, u hozirgi kunda ham logopediya sohasining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki yozuv buzilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eng ko‘p uchraydigan nutq patologiyasi shaklidir. Yozuvdagi buzilish butun o‘quv jarayoniga va bolalarning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, u nutq bilan bog‘liq bir qator funksiyalarning shakllanishiga ham ta‘sir qiladi: fazoviy va vaqt orientatsiyasi, qo‘l harakat funksiyalari, eshitish-motor koordinatsiyasi. Bunday buzilishlarni o‘z vaqtida aniqlash, har bir holatda ularning patogenezi aniq belgilash hamda disgrafiyaning boshqa turdagi yozuv xatolaridan farqlash logopedik ishni to‘g‘ri tashkil etishda juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan tizimli va maxsus tashkil etilgan ishlar o‘quvchilarda barcha kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Maktab logopedining asosiy vazifasi — yozma nutq buzilishlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, o‘quvchilarning keyingi ta‘lim

bosqichlariga o'tishida o'quv-bilish faoliyatini qiyinlashtiradigan muammolarning oldini olishdir. Yozma nutq buzilishlarining profilaktikasida logoped va sinf o'qituvchisining hamkorlikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra, disgrafiya bolaning yashash sharoiti va ta'lim olish muhitiga ham bog'liq. Shuning uchun so'nggi yillarda bolalarda yozma nutq buzilishlarining ko'payish jarayonini pedagogik usullar yordamida to'xtatish mumkinligi ta'kidlanmoqda. Pedagogika, logopediya va tibbiyot umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafiyaning oldini olish va korreksiya qilish uchun zarur bo'lgan tuzatish bazasini ta'minlashi lozim. Ota-onalar odatda maxsus logopedik bilimga ega emaslar. Shu sababli disgrafiyaning profilaktikasi va korreksiyasi maktab logopedining kasbiy mas'uliyati hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi logopedlarning korreksion ishlari tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafiyaning tuzatishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafiya yozma nutqni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan murakkab va ko'p omilli buzilish bo'lib, u yozish jarayonida ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq. Disgrafiya fonematik tahlil va sintez, optik-fazoviy tasavvurlar, leksik-grammatik tuzilma hamda motor jarayonlardagi kamchiliklar natijasida namoyon bo'ladi va o'quvchilarning ta'lim jarayoniga moslashuvi, o'zlashtirish darajasi hamda umumiy nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois disgrafiyaning erta aniqlash, uni oddiy yozuv xatolaridan farqlash hamda logopedik, pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda tizimli korreksion ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompleks yondashuv asosida olib borilgan maqsadli ishlar boshlang'ich ta'lim bosqichida yozma nutq ko'nikmalarini samarali shakllantirish va o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Волкова Л.С. Логопедия.- М.: ВЛАДОС,1999.
2. Лопатина Л.В., Серебрякова Н.В. Преодоление речевых нарушений у дошкольников. С.-П.: СОЮЗ, 2001.
3. Мартынова Р.И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрии и функциональной дислалией.- Хрестоматия по логопедии. Раздел 3 — Дизартрии. — М.: ВЛАДОС,1997.
4. Архипова Е.Ф. Коррекционная работа с детьми со стертой формой дизартрии. — М, 1989.
5. И.И. Ермакова. Коррекция речи и голоса у детей и подростков.- М: Просвещение, 1996.
6. Л.В. Лопатина, Н.В. Серебрякова. Логопедическая работа в группах дошкольников со стертой формой дизартрии. — С.-П., Образование, 1994
7. Лалаева, Р.И. Нарушения письменной речи. [Текст] / Р.И. Лалаева /- М., 1989.
8. Логопедия: Учеб. Для студ. дефектол. факультетов пед. вузов / Под ред. Л.С.Волковой, С.Н.Шаховской. - 3-е изд., перераб. И доп. - М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2002. - 680 с
9. Садовникова, И.Н. Нарушение письменной речи у младших школьников. [Текст]/ И.Н. Садовникова /- М., 2003. - 296 с.
10. Корнев, А.Н. Нарушения чтения и письма у детей. [Текст] /Корнев А.Н. /- СПб.: Речь, 2003.